

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjaeva

29-avgust 2025-yil

**TARIXIY GEOGRAFIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix

QO‘QON – 2025

Fan/modul kodi TG1105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy fanlar		Ta’lim tili o‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarixiy geografiya	60		90	150
2	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi – tarix fani mutaxassisligi bo‘yicha bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilariga O‘rta Osiyoning qadimgi davrlardan hozirgi zamonga qadar bo‘lgan tarixiy geografiyasi, voqea-xodisalarni o‘rganishda tarixiy-geografik tamoyillarga asoslanib xulosa chiqarishga o‘rgatish va ilmiy tasavvurlar hosil qilish; Fanning vazifasi - O‘rta Osiyoning qadimgi davrlardan hozirgi zamonga qadar bo‘lgan tarixiy geografiyasi tahlilini amalga oshirish, tarixiy voqealarni tarixiy-geografik nuqtai-nazaridan tahlil qilish. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Raqamli tarix fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 94-o‘rinni egallagan bo‘lib, tarix sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan bir qatorda, raqamli tarix fani mavzulari ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fani dasturi asosida boyitilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar raqamli tarix faniga oid ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslanib xolis tarixiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar. II.Asosiy nazariy qism II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi (ma’ruza mashg‘ulotlari): 1-mavzu: Tarixiy geografiyaning vazifalari, shakllanishi va taraqqiyoti Tarixiy geografiyaning asosiy bo‘limlari: tabiiy tarixiy geografiya; aholi tarixiy geografiyasi; xo‘jalik (iqtisodiy) tarixiy geografiyasi; siyosiy tarixiy geografiya (shaharlar va o‘lkalar joylashishi, tarixiy voqealar geografiyasi, harbiy harakatlar yo‘nalishlari, janglarning karta-sxemalari, xalq qo‘zg‘olonlari geografiyasi). Tarixiy geografiyani o‘rganishda yordamchi fanlarning o‘rni. Tarixiy-geografik tadqiqotlarning asosiy metodlari fan sifatida. A.Orteliyning tarixiy geografiya shakllanishiga qo‘shgan hissasi. F.Klyuvernning tarixiy geografik				

manbalar va asarlarga oid tanqidiy tahlili. J.B.D Anvil va fransiyalik yerudit maktabining boshqa vakillari tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixiy geografiyasining o'rganilishi.

2-mavzu: Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti

Kartografiya haqida ilmiy tushuncha. Kartalarning mazmuniga ko'ra bo'linishi. Tarixiy kartografiya ilmiy fan sifatida. Tarixiy kartografiyaning fan sifatida mazmuni va tarixiy-kartografik usullarning tarix fanida qo'llanilishi. Umumiy va alohida tarixiy kartalar. Tarixiy kartalarning turlari (tarixiy-siyosiy, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-harbiy, madaniy-tarixiy va hokazo). Tarixiy kartografiyaning paydo bo'lish bosqichi va taraqqiyoti. Tarixiy-o'quv kartalar. Qadimgi geografik kartalarning tarixiy manbashunoslik ahamiyati. Antik davrda kartalar uchun maxsus atama bo'lmagan. Rim imperiyasida kartografik tasvirlarni tabula (doska) deb atashgan. Keyinroq ilk o'rta asrlarda karta lotincha „mappa" (dastlab polotno qismi yoki dastro'mol m a'nosini anglatgan), „mappa mundi" shaklida esa (dunyo kartasi) o'sha davrda Yerning barcha kartalariga nisbatan qo'llanilgan. Kartografik tasvirlarga nisbatan „karta" so'zining qo'llanilishi Uyg'onish davrida lotinchadan „charta" (varaqa, qog'oz) so'zidan, o'z navbatida u qadimgi yunon tilidagi „xartes" (papiirusdan tayyorlangan qog'oz) so'zidan olingan. Bu so'z ilk bor Portugaliyadagi XIV asr kartalarida uchraydi. Karta so'zi aslida lotincha „chartes" — xartes so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan papiirus varag'i degan ma'noni bildiradi.

3-mavzu: O'rta Osiyoning qadimgi davri tarixiy geografiyasi (ibtidoiy davr-m. avv IV asrlar)

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tarixiy geografiyasining asosiy jihatlari va xususiyatlari. Tosh asri (paleolit, mezolit, neolit) manzilgohlari tarixiy geografiyasi. Joytun, Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod va boshqa madaniyatlar. Yeneolit va bronza (o'troq dehqonchilik manzilgohlari, ko'chmanchi qabilalar qo'rg'onlari, mozor-qo'rg'onlar va hokazo) davridagi manzilgohlar va aholining tarqalishi. Qadimgi Xorazm, Sug'd va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi (mil. avv. VI-IV asrlar). Asosiy tarixiy viloyatlar, aholi joylashuvi. Qadimgi tosh asri uch davrga bo'linadi: **ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolit**. O'rta Osiyodagi qadimgi tosh asri manzilgohlari va ularning madaniy qatlamlaridan topilgan ashyolaiga qarab hukm chiqarilsa, bu o'lkaga odamlar juda erta kelib o'zlarini boshlaganligini bilish mumkin. Ilk paleolit davri manzilgohlari Seleng'ur g'ori va Ko'lbuloq makonidan topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysining So'x tumanida joylashgan Seleng'ur g'oridan tosh qurollar va odamnikiga o'xshash suyaklar topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Seleng'ur topilmalarining yoshi 1 million yildan ziyodroqdir. Ko'lbuloq makoni hozirgi Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida bo'lib, Chotqol tog'ining janubiy yonbag'rida, Qizil olma soyining chap sohilidagi K o'lbuloq degan manzilda joylashgan.

4-mavzu: O'rta Osiyoning salavkiylar, Yunon-Baqtriya, Kushon davlatlari davri tarixiy geografiyasi.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining xususiyatli jihatlari; shaharlar, davlat birlashmalarining shakllanishi. Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari va yunon-makedon istilolari davri tarixiy geografiyasi. Spitamen qo'zg'oloni tarixiy geografiyasiga tavsif. Salavkiylar davlati hukmronligi davrida So'g'd (So'g'diyona) va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ma'muriy-hududiy bo'linish, shaharlar va asosiy mintaqalar. tarixiy geografiyasi. Buyuk Ipak yo'liga tarixiy-geografik tavsif. Asosiy yo'nalish va tarmoqlari. Kushon podsholigi tarixiy geografiyasi.

5-mavzu: O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyo hududida ilk feodal davlatlarning tashkil topishi. Eftaliylar davlati tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo Turk hoqonligi tarkibida (VI-VII asrlarga tarixiy geografik tavsif). Arab xalifaligining O'rta Osiyoni istilo qilish tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo Arab xalifaligi tarkibida. Tarixiy-siyosiy geografiya. O'rta Osiyoda xalifalik hokimiyatiga qarshi xalq harakatlari geografiyasi (Muqanna va hokazo). V asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga ko'chmanchi **eftalit** qabilalari kirib kelishadi. Bu yangi qabilalar ittifoqi 50-yillarda ancha mustahkamlandi. Ularning 456 yilda Xitoyga o'z elchilarini yuborishi ham buning tasdig'idir. Eftalitlarning janubga siljishi sosoniylar Eroni bilan to'qnashuvlar keltirib chiqardi. Bu urushda ham eftalitlar g'alaba qozonib, sosoniylar eftalitlarning o'lpondoriga aylanib qoladi. Eftalitlar sosoniylar bilan birga kurash jarayonida O'rta Osiyoning janubiga siljiy boshlagan. Ular 467-470 yoki 480 yillarda Sug'dni bosib olishadi va keyin Sharqiy Turkistonga qarab siljishadi. 479 yilda Turfon, 490-497 yillarda Urumchi, 497 va 507 yillar oralig'ida Karashara, Xo'tan va Qoshg'ar eftalitlar davlati tarkibiga kiradi va VI asrning boshlarida butun Sharqiy Turkiston eftalitlar qo'l ostida birlashadi.

6-mavzu: O'rta Osiyoning IX-XIII asrlardagi tarixiy geografiyasi

IX asrda O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlatining tarixiy geografiyasi. Somoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga tavsif (chegaralari, iqtisodiy aloqalari, shaharlar). Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va tarixiy geografiyasiga tavsif. Xorazmning Ma'mun, G'aznaviy va Saljuqiylar davlatlari davridagi tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiy tili o'zbek xalqining shakllanishi va uning asosiy davrlari. Xorazmshohlar (anushteginlar) davlati va uning tarixiy geografiyasi. Somoniylar davrida katta yer egalari — dehqonlarning nufuzi ortib, ko'pincha bir dehqon qo'lida katta yer maydonlari, butun bir viloyat bo'lgan. Ziroat bilan shug'ullanuvchi ziroatkor **kadivar** deyilgan. Yirik yer egasi yerida ishlaydigan ijarachi **barzigar** deb atalgan. Xo'jalikda qo'l mehnatidan ham foydalanilgan. Somoniylar davlati aholisining asosiy qismini ziroatchilar tashkil etgan. Keyingi o'rinda hunarmandlar va savdogarlar turgan. XI-XII asrlarda yuz bergan siyosiy voqealar Movarounnahr jamiyat hayotida ham o'zgarishlar yasadi. Alohida mulklarning boshqaruvi, ma'muriy idoralar somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va martabalaridagi farq katta emas

edi. Ijtimoiy tuzumda mavqei ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar — dehqonlar qatlami qoraxoniylar davriga kelib o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'rta Osiyo ko'hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o'rtasidagi taxt almashuvi, eng ta'sirli jihati esa ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o'troq aholi hududlarini ishg'ol etishidir.

7-mavzu: Mo'g'ullar xukmronligi va Amir Temur davrida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi

Mo'g'ullar yashagan hududlar tarixiy geografiyasi. Mo'g'ullar shug'ullangan mashg'ulotlar. Mo'g'ullar davlati va uning tarixiy geografiyasi. Xorazmshohlar (anushteginlar) davlati va uning tarixiy geografiyasi. Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga harbiy yurishlari yo'nalishlari. Harbiy qal'alar, mudofaa inshootlari. Mo'g'ullarga qarshi ozodlik harakatlari tarixiy geografiyasi. Movarounnahrning XIV asrning 50-60 yillaridagi va mo'g'ul xonlarining yurishlariga qarshi kurashlari tarixiy geografiyasi. 1219 yilning kuzida Chingizxon o'g'illari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji bilan birga Xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari 200 mingga yaqin edi. Chingizxon qo'shini qadimgi yo'l bilan Ili daryosi bo'ylab Shimoliy Farg'onadan o'tib, Janubiy Qozog'istonda Sirdaryo bo'yida joylashgan O'tror shahri ustiga yurish qildi. Bu shahar yaqinida butun kuchlarini to'plab, Movarounnahmi qisqa muddat ichida zabt etish uchun uni to'rt qismga bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tromi qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismiga Jo'ji boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga Sig'noq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin Oloqnuyon hamda Suketucho'rbiy ismli sarxanglari qo'mondonligida Sirdaryoni o'rta sohilbo'ylab, uning yuqori oqimida joylashgan Binokat va Xo'jand shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlar* bilan dashtliklar orqah Buxoroga tomon askar tortdi.

8-mavzu: Temuriylar davrida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi

Temuriylar davlatining shakllanishi va taraqqiyoti (ma'muriy-siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar va hokazo). Ulug'bekning Movarounnahrda davlati. Temuriylarga qarshi Shayboniylar yurishi yo'nalishlari, janglarning yo'nalishlari. XV asr oxirida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi. Chig'atoy ulusi davrida Movarounnahrda o'zaro nizolar va tarqoqlikni tugatish maqsadida Amir Temur kurash boshlaydi. 1365 yilda Movarounnahr hukmdori deb tayinlangan Ilyosxoja qo'shinlari bilan Temur va Husaynning ittifoqchi qo'shinlari o'rtasida Chirchiq daryosi bo'ylarida bo'lib o'tgan jangda Ilyosxoja qo'shinlarining qo'li baland keladi va u Xo'jand, Jizzax shaharlarini egallab, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandda bu paytda

sarbadorlar harakati maydonga chiqib, mo'g'ullarning qo'shiniga qarshi qaqshatqich zarba beradi. Ilyosxoja avval Samarqandni, so'ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bundan xabar topgan Amir Temur va Amir Husayn Samarqandga keladilar. Ammo ko'p vaqt o'tm ay Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi munosabat keskinlashib, nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. 1370 yilda Amir Temur Balxga yurish qilib, Amir Husaynni taslim qiladi. 1370 yilning 10 aprelida **Amir Temur Movarounnahr hukmdori** deb e'lon qilinadi.

9-mavzu: O'rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi

Ko'chmanchi o'zbeklarning Dashti Qipchoqdagi davlati (Abulxayrxon davlati) va uning Shayboniyxon tomonidan tiklanishi (tarixiy geografik tavsifi). Temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi kurashlar tarixiy geografiyasi. Shayboniylar davlati tarixiy geografiyasi. Yetnik jarayonlar, o'zbek xalqi shakllanish jarayonining tugallanishi. Ashtarxoniylar va Xorazm davlati davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi. Ashtarxoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga asosiy tavsifi O'rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi. XVII-XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining siyosiy-ma'muriy va ma'muriy-hududiy bo'linishlari, xo'jalik, xalqlar, savdo aloqalari va tarixiy demografiyasiga tavsif.

10-mavzu: O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi. 1917-1924 yillarda Turkiston va O'rta Osiyoni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi geografiyasi. Asosiy istehkomlar, harbiy yurishlar tarixiy geografiyasi. 1865-1867 yillarda Turkiston viloyati. 1867 yilda general-gubernatorlikning tashkil topishi, chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi. Rossiya-Buxoro (1868 y) va Rossiya-Xiva (1873 y) urushlari; chegaralarning o'zgarishi. XIX asr 80-90 yillari va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixiy geografiyasi. Qo'qon qo'zg'olonining tugallanishi (Po'latxon qo'zg'oloni va uning uch bosqichi), Qo'qon xonligining tugatilishi. Xo'jalik tarixiy geografiyasidagi o'zgarishlar. 1917 yil fevralidan so'ng Turkiston o'lkasi.

11-mavzu: 1917-1920 yillardagi O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi

1917-1920 yillardagi keskin harbiy-siyosiy kurashlar davrining tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiston muxtoriyati. Turkiston ASSR va uning tarixiy geografiyasi. 1917-1920 yillarda Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi.

12-mavzu: Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarining tarixiy geografiyasi.

BXSR va XXSRning tashkil topishi. BXSR va XXSRning ma'muriy bo'linishi. BXSR va XXSRning iqtisodiy geografiyasi. BXSR va XXSRning milliy-hududiy chegaralanishga tortilishi. 1920 yil 27-30 aprelda Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyi Xiva xonligini bekor etilgan deb e'lon qildi va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qildi. Qurultoy Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Muvaqqat Konstitusiyasini qabul etdi. Qurultoy ro'y bergan to'ntarilishni va uning natijasida o'atilgan tuzumni **antimonarxistik, antifeodal, xalqdemokratik** xususiyatiga ega bo'lgan tuzum sifatida aks ettirdi. Ayni vaqtda Konstitusiyada RSFSRning hokirmyat shakli bo'lgan **sovet andozasi** qabul qiUndi, lekin Xorazmdagi sovetlar o'z mazmuniga ko'ra proletar diktaturasini ifoda etmasdi, u demokratik xususiyatga ega edi. Qurultoy sobiq yosh xivaliklar a'zosi bo'lgan Polvonmyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Hukumat sobiq yosh xivaliklar, turkman urug'lari rahbarlari va kommunistlardan tashkil topdi. Qizil askar nayzalari yordamida o'atilgan bu tuzumni o'z kuchlari bilan saqlab va mustahkamlab bo'lmasligini yaxshi tushungan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi rahbarlari RSFSRning ko'magiga umid qilishga intildi.

13-mavzu: 1920-1925 yillar O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi.

Milliy-hududiy bo'linish. Milliy respublikalarning tashkil etilishi. Milliy respublikalarning xududiy, ma'muriy bo'linishlari. O'zbekiston SSR tashkil topishi. O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasi. 1924 vil 15 sentyabrda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining navbatdan tashqari sessivasi ish boshladi. U ning kun t a r t ibid a bitta masala: m illiy-hududiy chegaralanish masalasi turardi. M azkur m asala yuzasidan Islomov m a 'ruza qildi. U m u - m an bu m a 'ruzada avvalgi bosqichlarda ilgari surilgan barcha g'ovalar va qoidalarni vaqqol takrorlashdan iborat b o 'ldi. M a'ruzada m illiy-hududiy chcgaralanishni ..millatlarni o'z taqdirini o'zi bclgilash prinsipi"ni t o 'liq amalga oshirish, yangi „milliy davlat tuzilmalariuni tashkil etish kcrak sifatida tushunish kerakligiga asos solindi. Shu bilan birga Islomov m a'ruzasida. m illiy-hududiy chegaralanish “ xalqning xohish-irodasini bildirish akti“, degan tezis birinchi bor ochiq aytildi: “ *Turkiston xalqlari bilan birgalikda Buxom va Xoraz.m xalqlari ham niilliy chegaralanish to'g'risida o'z xohish-irodasini o'ldirdilar. Ular ham barchi qirg'izlar o'zbeklar va turkmanlarni yagona davlatga birlashtirish yo'li bilan qilingan tarixiy adolatsiz oqibatlarini tuzatishga intilmoqdalar*”.

14-mavzu: O'zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991 yillar).

O'zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991 yillar). O'zbekistonning 1924-1938 yillardagi chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi (viloyatlar, uyezdlar, volostlar, qishloq sovetlari; okruglar, rayon tizimi tashkil yetilishi; okrug va viloyatlarga qaytish). Sovet davrida O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston chegarasining o'zgarishlari. O'zbekistonning xo'jaligi, aholi va

tabiiy geografiyasi. O'zbekiston hukumati 1922 yilda sug'orish ishlariga katta idorda mablag' ajratdi. Bu ishlar O'zbekiston SSRtuzilgach, j^idda avj oldirib yuborildi. Uruhgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo irrigasiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929-1933 yillarda bu sohaga 234,9 million rubl sarflandi. Birgina 270 km. bo'lgan Katta Farg'ona kanali 45 kun ichida qurib bitkazildi (1939 yil). Buning natijasida Farg'ona vodiysida 60 ming gektar bo'z cho'lli yerlar o'zlashtirilib, 500 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.

15-mavzu: O'zbekistonning tabiiy-geografik tavsifi, ma'muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy geografiyasi

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi, viloyatlar, Qoraqalpoqiston Respublikasining xududiy chegaralari, iqtisodiy ahvoli. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, qishloq ho'jaligi, sanoat joylashuvi. O'zbekiston Turkistonning markaziy qismida joylashgan. Hududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, m o" tadil va subtropik iqlim mintaqalarida o'rnashgan. O 'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimolisharqida, Orol dengizi qirg'og'ida bo'lib, 45° shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida,

Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, 37° shimoliy kenglikka to'g'ri keladi. Respublikaning eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida 56°00' sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa 0 'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida, O'zgan shahri yaqinida bo'lib, 37° 10' sharqiy uzoqlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtalari orasidagi masofa esa 1400 km 0 'zbekiston janubi-sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda 0 'zbekiston toigina Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradosh. Bu yerda Afg'oniston bilan O'zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi.

II.II. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti
2. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa davri tarixiy geografiyasining asosiy jihatlari va xususiyatlari
3. O'rta Osiyoning salavkiylar, Yunon-Baqtriya, Kushon davlatlari davri tarixiy

geografiyasi.

4. O'rta Osiyo hududida ilk feodal davlatlarning tashkil topishi tarixiy geografiyasi.
5. O'rta Osiyoning Turk hoqonligi va Arab xalifaligi davri tarixiy geografiyasi.
6. IX-X asrlardada O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi
7. Xorazmning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasiga tavsif
8. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini davrining tarixiy geografiyasi
9. Temuriylar davrida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi.
10. O'rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi
11. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi.
12. Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi.
13. O'rta Osiyoda milliy-hududiy bo'linish tarixiy geografiyasi
14. Sovetlar davrida Qoraqalpoqistonning tarixiy geografiyasi
15. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi

Mavzu: Tarixiy geografiyaning vazifalari, shakllanishi va taraqqiyoti

Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari: tabiiy tarixiy geografiya; aholi tarixiy geografiyasi; xo'jalik (iqtisodiy) tarixiy geografiyasi; siyosiy tarixiy geografiya (shaharlar va o'lkalar joylashishi, tarixiy voqealar geografiyasi, harbiy harakatlar yo'nalishlari, janglarning karta-sxemalari, xalq qo'zg'olonlari geografiyasi). Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlarning o'rni.

Tarixiy-geografik tadqiqotlarning asosiy metodlari fan sifatida. A.Orteliyning tarixiy geografiya shakllanishiga qo'shgan hissasi. F.Klyuvernning tarixiy geografik manbalar va asarlarga oid tanqidiy tahlili. J.B.D Anvil va fransiyalik yerudit maktabining boshqa vakillari tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixiy geografiyasining o'rganilishi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Fandan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yonaltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya yetiladigan mavzular:

1. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari
2. Tarixiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi
3. Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi tarixiy fanlarning o'rni
4. O'rta Osiyo olimlari asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati
5. O'zbekistonda kartografiya fani tarixi
6. Antik davr mualliflarining O'rta Osiyoga doir kartografik tadqiqotlari
7. XIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-geografik va kartografik ma'lumotlar
8. O'rta Osiyoning tosh asri manzilgohlari tarixiy geografiyasiga tavsif
9. O'rta Osiyoning eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlari tarixiy geografiyasi
10. Ahamoniylar hukmronligi va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi
11. Eftalitlar va turk xoqonligi siyosiy-iqtisodiy tarixiy geografiyasi
12. O'rta Osiyo arab xalifaligi tarkibida
13. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahrda mustaqil davlatlar va ularning siyosiy tarixiy geografiyasi
14. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini va unga qarshi ozodlik harakatlari
15. Mo'g'ul (Chig'atoy) ulusi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi
16. Amir Temur va temuriylar davlati tarixiy geografiyasi
17. Shayboniylar, ashtarxoniylar davlatlari va Xorazmning siyosiy va iqtisodiy geografiyasi (XVI-XVIII asrning birinchi yarmi)
18. O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtisodiy tarixiy geografiyasi
19. Chor istilosiga qarshi milliy-ozodlik kurashlari geografiyasi
20. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi

IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- tarixiy geografiya fani predmeti, maqsad va vazifalari, tarixiy geografiyaning davrlashtirish tamoyillari, jahon sivilizatsiyalari tarixiy taraqqiyotida O'zbekiston hududlarining o'rni, tarixiy geografiyaning tadqiqot usullari, tarixiy manbalar asosida

	tarixiy jarayonni tahlil qilish, tarixiy geografiya to'g'risida <i>bilimga ega bo'lishi</i>; - tarixiy voqealarga xolisona baho berishni bilishi bo'yicha ko'nikmaga yega bo'lishi, tarixiy geografiya bilimlarini tarix dars jarayonlarida <i>ko'nikma hosil qilishi</i>; - Geografik hududlarning qadimgi va zamonaviy davrdagi o'zgarishlarini tahlil qila olish, Tarixiy xarita, atlas, kontur xaritalar bilan tahlil
3	V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyixalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
4	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
5	Asosiy adabiyotlar: 1. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiY. O'quv darsligi. - T.: Noshir, 2010. 2. O. Bozorov va boshqalar. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma. Fargo'na, Farg'ona nashriyoti. - 2015 y. 3. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – Toshkent, O'zbekiston, 1997. 4. Mansurov O'., Saydullayev A., Rahmatullayeva O. Yordamchi tarix fanlari. –Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2008. 5. Saidboboyev Z. Yevropada O'rta Osiyoga oid tarixiy-kartografik ma'lumotlar (XVI-XIX). - Toshkent, Fan, 2008. 6. O'zbekistonning yangi tarixi. I-III jild. – T., Sharq, 2000. 7. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. - T., Sharq, 2001. 8. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001. 2. Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (ilk o'rta asrlar). – Toshkent, 2010. 3. Bo'riyev O., Manbalarda Shaxrisabz tavsifi. —Qarshi, 2004. 4. Maxmudov Q. Qadimgi Turkiston. –T., 2011. 5. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. –T., 2008. 6. Bo'riyev O. Amir Temurni yod etib – Toshkent, O'zbekiston, 1996. 7. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. - Toshkent, 2004.

	8. Egamberdiyeva N. Arxeologiya. - T., 2011. 9. Eshov B., Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. - Toshkent, 2006. 10. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kultury Syentralnoy Azii. – Toshkent, 2005. 11. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – T., 2007. 12. Maksakovkiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1997. 13. Mirzaliyev T., Musayev I.. Kartografiya. -T., 2007. 14. Современная история и геополитика в Центральной Азии / М. Ш. Губайдуллина, А. В. Гушин, Г. Дадабаева и др. 15. — Казак университети Алматы, 2017. 16. Труды Института постсоветских и межрегиональных исследований. Вып. 4: Узбекистановедение / Редкол.: Е.И.Пивовар (отв. ред.), Е.Я. Виттенберг, М.Ю.Мухин, И.Е.Ханова. М.: РГГУ, 2022. 357 с Elektron ta'lim resurslari www.pedagog.uz www.Zivonet.uz www.edu.uz - tdpu-internet.ped avorhist.narod.ru/publish/istvedO.html www.opentextmn.ru/history/istochnik ru.wikipedia.org/wiki/istochnikovedeniye annals.xlegio.ru/greyecye/istved/idg2_01 .htm http://www.hist.msu.ru/ER/ - Библиотека электронных ресурсов исторического факультета МГУ имени М.В.Ломоносова. - Официальный сайт Исполнительного комитета СНГ http://www.cis.minsk.by/
7	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8	Fan/modul bo'yicha ma'sul: M.M. Temirova QDU, tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent A.Maroziqov QDU, tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
9	Taqrizchilar: R.Ahmedova QDU, tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Z.Esonov QDU, tarix kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)